

BOG‘LOVCHISIZ SHAKLLANGAN TENG KOMPONENTLI MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR DERIVATSIYASI

Usmonova Aziza Orziqulovna
*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.*

***Annotasiya:** Ushbu maqolada bog‘lovchisiz shakllangan teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi hodisasi haqida olimlarning qiyosiy fikrlari o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** bog‘lovchisiz qo‘shma gap, sintaktik qurilma, derivatsiya, intonatsiya, leksik unsurlar.*

***Abstrakt:** This article examines the comparative opinions of scientists abo ut the phenomenon of derivation of comlex syntactic devices with equal complex formed without connectors.*

***Key words:** conjunction without linking, syntactic devices, derivations, intonation, lexical elements.*

Biz bilamizki, o‘zaro bog‘lovchi yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalarsiz, faqat mazmun va ohang yordamida bog‘langan oddiy qo‘shma gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap deyiladi. Masalan; daryo bo‘lib oqdim, qush bo‘lib uchdim. Endi bog‘lovchisiz shakllangan teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi haqida tilshunos olimlarimizning o‘zaro fikrlarini qiyoslaymiz. O‘zbek tilshunosligida bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplar tadqiqida maxsus monografik ishlar bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da mazkur mavzuni mutlaqo ishlanmagan deb bo‘lmaydi. Ushbu mavzu bo‘yicha, G‘.Abdurahmonov va M. Asqarova kabi yetakchi tilshunoslar tomonidan aytilgan fikrlar muhimilmiy salohiyatga egadir.

G‘. Abdurahmonovning ilmiy- monografik ishlarida tarkibiy qismlari bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlarning yordamisiz aloqaga kirishib yaxlit bir fikr ni ifodalovchi qo‘shma gapning bu turi bog‘lovchisiz qo‘shma gap sanalishi ta' kidlanadi va bunday unsurlarning mavqei oshishi alohida uqtiriladi.



G'. Abdurahmonovning fikriga ko'ra, bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmunan va ohangda qorishib ketadi. Ular alohida olinganda mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lmaydi. Bunday qo'shma gap tarkibiy qismlari o'zaro qo'shilib ma'lum bir fikrni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib shuni ta'kid lashimiz mumkinki, bog'lovchisiz shakllangan MSQ komponentlari alohida olinganda mazmun va ohang butunligini yo'qotish xususidagi fikr doimiy ravishda qat'iylik kasb etmaydigan ko'rinadi, zotan ayrim paytlarda bog'lovchisiz shakllangan MSQ komponentlari alohida olinganda ham mazmun va ohang butunligi saqlanishi ko'zga tashlanadi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi MSQ ni mustaqil sodda gaplarga ajratib ko'ramiz: Yigitlik kuchimning qaymog'ini boy oldi, men uni boy qildim. (Ham za. Boy ila xizmatchi). Yigitlik kuchimning qaymog'ini boy oldi. Men uni qildim.

G'. Abdurahmonov bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishida ayrim so'zlarning qo'llanishini, umumiy ikkinchi darajali bo'laklarning bo'lishi ma'lum gap bo'laklarining har ikki qism tarkibida takroriy qo'llanishi kabi omillar vosita bo'la olishini mutlaqo to'g'ri ko'rsatadi va bu bilan bunday sintaktik qurilmalarning mikromatn qolipini taqozo etishi haqida fikr dalili uchun zamin yaratadi. Chunki eslatib o'tilgan omillar matn komponentlarining sintaktik derivatsiyasini ta'minlashda salmoqli o'rin tutadi.

M. Asqarovaning tadqiqotlariga bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari bog'lovchilarsiz yoki bog'lovchi vositasidagi grammatik formalarsiz, faqat intonatsiya bilangina birikib, sintaktik butunlik hosil qilishi ta'kidlanadi va bunday qo'shma gapning ikki turi mavjudligi aytiladi:

1. Teng qismli qo'shma gap.
2. Tobe qismli qo'shma gap.

Teng qismli qo'shma gapda komponentlar bir-biri bilan mazmunan teng munosabatda bo'ladi va o'zaro tenglik intonatsiya orqali birikadi. Tobe qismli o'shma gapda esa komponentlar tobelanish intonatsiyasi yordamida birikadi. M. Asqarova



bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining bog'la nishi har ikki qism uchun umumiy so'zlar, olmoshlar ishtirokida voqealanishi mumkinligini ham to'g'ri ta'kidlaydi. Bunday mulohaza qo'shma gapning mazkur turini mikromatn tarzida o'rganish uchun, ayniqsa ularning derivatsion xususaiyatlari talqinini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I. Rasulov ham bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiy qismlarining o'zaro sintaktik munosabati xususida ancha teran fikr bildiradi: "Qo'shma gap tarkibida kelgan ayrim so'zlar sodda gaplarning o'zaro birikishida xizmat qiladi. Tarkibida bu xil so'z mavjud bo'lgan sodda gap ikkinchi bir gapni talab qiladi". Bundan tashqari, olim bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarining ayrim so'zlar takrorlanishi, gapning grammatik qurilishi, har ikki tarkibiy qism uchun umumiy bo'lgan ikkinchi darajali bo'laklar, shuningdek sodda gaplarning o'rni orqali o'zaro bog'lanishini ham to'g'ri ta'kidlaydi. Yuqoridagi olimlarimizning fikrlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkiniki bog'lovchisiz qo'shma gaplarning hosil qilinishida intonatsiya jihatdan va leksik unsurlar jihatidan hosil qilinishini bilib oldik. Shu tariqa, bugungi kunda ham bog'lovchisiz shakllangan murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi borasida muzokaralar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmanova O. S., Mikaelyan G. B. "Zamonaviy sintaktik nazariyalar" 2003. 168- b.
2. Beregovskaya E. M. "Ekspressiv sintaksisga oid insholar" _ M., 200, 208- b.
3. Semenova I. V. IT ittifoqining hosilalari.
4. Shodievich, S. H., Roziqovna, R. M., & Hamzaevich, S. J. (2023). BUGUNGI KUN KITOBLARI QANDAY BO'LISHI KERAK. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 19-24.
5. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O'QUV YURTLARIDA MASHG'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.